



## MILLIY URF-ODAT VA BEZAKLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI.

Aripova Moxigul,

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi  
tasarrufidagi marg‘ilon shahar tarixi muzeyi ilmiy xodimi.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606848>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada etnografiya sohasida urf-odatlar va milliy bezaklarning ahamiyati tahlil qilinadi. Urf-odatlar xalqning ijtimoiy hayoti, an‘analari va ma‘naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Milliy bezaklar esa xalqning estetik didi va madaniy merosini namoyon qiladi. Maqolada ularning etnografik o‘rni, ular orqali xalqning tarixi, dunyoqarashi, madaniy merosni o‘rganish, milliy an‘analarni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishdagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Etnografiya, madaniy an‘analar, urf-odatlar, milliy bezaklar, madaniy meros, milliy o‘zlik, etnografik tadqiqot,

**Annotation.** This article analyzes the importance of customs and traditional ornaments in Ethnography. Customs reflect the social life, traditions, and spiritual values of people, while ornaments demonstrate their aesthetic taste and cultural identity. The study highlights the role of these elements in ethnographic research and their significance in preserving cultural heritage and transmitting national traditions to future generations.

**Keywords:** Ethnography, cultural traditions, folk customs, traditional ornaments, cultural heritage, national identity, ethnographic research.

**Kirish.** Xalqlarning madaniy hayoti, turmush tarzi va an‘analarini o‘rganishda etnografiya muhim o‘rin tutadi. Etnografiya orqali xalqlarning urf-odatlari marosimlari, milliy bezaklari va milliy qadriyatlari haqida keng ma‘lumot olish mumkin. Urf-odat va bezaklar har bir xalqning tarixiy rivojlanishi, dunyoqarashi va estetik qarashlarini aks ettiradi. Urf-odatlar insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan, avloddan-avlodga o‘tib keladigan an‘analar majmuasidir. Bezaklar esa xalqning san‘atga bo‘lgan munosabatini, estetik didi va ramziy ma‘nolarini namoyon qiladi. Shu sababli etnografik tadqiqotlarda urf-odatlar va bezaklar alohida ilmiy ahamiyatga ega.

**Urf-odat tushunchasi va uning ahamiyati.** Jamiyatda uzoq vaqt davomida shakllangan va ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynaydigan an‘analar hisoblanadi. Har bir xalqning o‘z milliy urf-odatlari bo‘lib, ular milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Etnografik tadqiqotlarda urf-odatlarni o‘rganish orqali:

- xalqning ijtimoiy hayoti;
- oilaviy munosabatlari;
- diniy va ma‘naviy qadriyatlari,
- tarixiy rivojlanishi haqida ma‘lumot olish mumkin. (1.b-[14])

Masalan, to‘y marosimlari, bola tug‘ilishi bilan bog‘liq an‘analar, mehmon kutish urf-odatlari va bayram marosimlari xalq madaniyatini o‘rganishda muhim



manba hisoblanadi. Masalan, navro‘z bayrami xalqning qadimiy an‘analari va madaniy qadriyatlarini namoyon etadi.

**Etnografik tadqiqotlarda bezaklar va ularning madaniy ahamiyati.** Milliy ramzlar va ma‘nolarni aks ettiradi.

- hududiy farqlarni aniqlashga yordam beradi.
- tarixiy davrlarni o‘rganishga xizmat qiladi.

Masalan:

- milliy matolarda naqshlar.
- uy devorlaridagi bezaklar.
- zargarlik buyumlaridagi ramziy belgilar.

Bezaklar milliy madaniyatning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Ular xalqning estetik didi va san‘at an‘analarini ko‘rsatadi. Milliy kiyimlar, uy-joylar, maishiy buyumlar va xunarmandchilik mahsulotlaridagi naqsh va bezaklar halqning madaniy merosini aks ettiradi.

Ajdodlarimiz milliy marosimlarda aloxida kiyinganlar. Nikox to‘yida kelin - kuyovlar, xatna to‘yda to‘y bolaning liboslari, dafn marosimi kiyimlari, yana liboslar bayram tantanalari, kundalik, kabi turlarga bo‘linadi. Jinsga qarab; erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari; yoshiga qarab, yoshlar, o‘rta yoshli, keksalar kiyimlari, bosh kiyimlar duppilar, sallalar, turli-tuman telpaklarni o‘z ichiga olgan. Milliy kiyimlar moddiy va ma‘naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarni ko‘rsatuvchidir. Kiyimlarda urf odatlar, ijtimoiy munosabatlar, diniy e‘tiqod, nafosat va inson umrining fasllari, u yashagan joy va zamon, xo‘jalik mavsumlari, xayotdagi quvonch yoxud qayg‘uli voqealar namoyon bo‘ladi. (2.b-[22])

Bezaklar ko‘pincha ramziy ma‘noga ega bo‘ladi. Ayrim naqshlar farovonlik, baxt yoki muhofaza ramzi sifatida qabul qilingan. Shu sababli bezaklarni o‘rganish orqali xalqning qadimiy ishonchlari va dunyoqarashlarini anglash mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlarida bezaklar ko‘pincha :

- geometrik naqshlar;
- o‘simliksimon naqshlar;
- ramziy belgilar

ko‘rinishida uchraydi. Bu naqshlar yog‘och o‘ymakorligi, to‘qimachilik, kulolchilik va zargarlik kabi milliy xunarmandchilik turlarida keng qo‘llaniladi. Milliy xunarmandchilikda asosan uch hil naqsh usuli mavjud bo‘lgan:

Islimiy, bog‘dodiy, pargoriy.

Islimiy - o‘simliksimon naqsh turi. Bu naqshda tanob, band bargli, “O‘rtakli butalar bir-biri bilan chirmashib ketib, o‘simliklarning o‘xshashlik tasvirini beradi”.

Bog‘dodiy – doira, uchburchak, qirralik, yulduzsimon shakllardagi naqsh ishlash usuli bo‘lib, eshik, javon, sandiqlarni bezatishda ishlatilgan.

Pargoriy – sirkul (aylana) yordamida ishlangan naqsh. Marg‘ilon yog‘och o‘ymakorligida o‘ziga hos milliy ko‘rinishga ega bo‘lgan zaminli uslub ham mavjud,



bu uslubdan asosan noyob buyumlarni, jumladan, qutichalar, kitoblar uchun muqovalar, xontaxta, kursilar, lavhlarni bezatishda foydalaniladi.

**Urf-odat va bezaklarning o‘zaro bog‘liqligi.** Etnografik tadqiqotlarda urf-odatlar va bezaklar o‘zaro chambarchas bog‘liq ekani kuzatiladi. Ko‘plab marosim va bayramlarda maxsus bezak va milliy kiyimlar qo‘llaniladi.

Masalan:

- to‘y marosimlarida kelinning milliy kiyim va taqinchoqlari;
- bayramlarda uy va hovlini bezash;
- marosimlarda maxsus naqshli matolardan foydalanish.

Har bir millatning o‘ziga xos eng ko‘p naqshlari bo‘ladi. O‘zbek kashtachiligida o‘simliksimon kashtalar ko‘p takrorlanadi. Qadimgi an‘analarga ko‘ra o‘zbek qizlari seplari uchun turli xil kashtachilik buyumlarini o‘z qo‘llari bilan tayyorlashlari shart edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo‘lsa, qayliq shunchalik yuqori baholanar edi. O‘zbeklarda eng keng tarqalgan kasblardan biri do‘ppi do‘zlikdir. o‘ziga xos shakli, kashta uslubi, gul naqshi bilan Chust, Qo‘qon, Marg‘ilon, Samarqand, Xorazm, Shahrizabz, Surxondaryo, do‘ppilaridan farq qilgan. Bu holatlar halqning madaniy an‘analari va ijtimoiy qadriyatlarini namoyon qiladi. Urf-odatlar va bezaklar birgalikda halqning madaniy merosini shakllantiradi.

**Etnografik tadqiqot usullari.** Etnografik tadqiqotlarda urf-odatlar va bezaklarni o‘rganish uchun turli ilmiy usullar qo‘llaniladi. Bular quyidagilardan iborat:

- kuzatish usuli;
- intervyu va suhbat;
- arxiv materiallarini tahlil qilish;
- muzey eksponatlarini o‘rganish;

Kuzatish usuli orqali tadqiqotchilar marosimlar va an‘analarni bevosita kuzatib, ularning mazmunini tahlil qiladi. Intervyu usuli esa mahalliy aholi bilan muloqot qilish orqali qadimiy urf-odatlar haqida ma‘lumot to‘plash imkonini beradi.

Muzeylarda saqlanayotgan milliy kiyimlar, bezakli buyumlar va hunarmandchilik namunalari ham etnografik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. (3.b-[25])

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, urf-odatlar va bezaklar etnografik tadqiqotlarning muhim ob‘ekti hisoblanadi. Ular xalqning tarixi, madaniyati va dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Urf-odatlar jamiyatning ma‘naviy va ijtimoiy qoidalarini aks ettirsa, bezaklar xalqning estetik didi va san‘at an‘analarini namoyon qiladi. Shuning uchun bu elementlarni chuqur o‘rganish orqali xalqning madaniy merosini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish mumkin. Etnografik tadqiqotlar xalqlarning madaniy boyligi va an‘analarini ilmiy jihatdan o‘rganish imkonini beradi. Bu esa milliy merosni asrash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## “SIRLI RANGLARDAGI MILLIY MEROS” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzaev N. “O‘zbekiston etnografiyasi”. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti. 2015 yil.
2. Rajabov Q. “O‘zbekiston xalq urf – odatlari an‘analari”.Fan, 2012-yil.
3. To‘raev Sh. Milliy bezaklar va xunarmandchiligi. Toshkent: ma‘naviyat. 2018 yil.
4. Azimov A. Markaziy Osiyo xalqlarining etnografiyasi.Toshkent: Universiteti nashriyoti. 2016 yil.
5. Bartold V.V. Turkiston tarixi. Toshkent: Sharq. 2014-yil.

